

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**HAYITOVA NIGORA ILXOMOVNA**

**TASHQI SAVDO VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI O‘ZARO  
ALOQALARNING STATISTIK TADQIQI**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on  
Economics Sciences**

**Hayitova Nigora Ilxomovna**

Tashqi savdo va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning statistik tadqiqi..... 3

**Хайитова Нигора Илхомовна**

Статистическое исследование взаимосвязи между внешней торговлей и экономическим ростом..... 29

**Hayitova Nigora Ilxomovna**

Statistical study of the relationship between foreign trade and economic growth ..... 55

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 60

**HAYITOVA NIGORA ILXOMOVNA**

**TASHQI SAVDO VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI O‘ZARO  
ALOQALARNING STATISTIK TADQIQI**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3238 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Utanov Bunyod Kuvandikovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Berkinov Bozorboy**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sabirov Xasan Nusratovich**  
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, PhD.

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi  
Statistika agentligi qoshidagi Kadrlar malakasini  
oshirish va statistik tadqiqotlar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «17» 01 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. tel. (71) 239-28-72, (71) 239-28-72, faks: (71) 239-28-72, e-mail: [tseu@tseu.uz](mailto:tseu@tseu.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1561 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. tel. (71) 239-28-72, (71) 239-28-72, faks: (71) 239-28-72, e-mail: [tseu@tseu.uz](mailto:tseu@tseu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «03» 01 da tarqatildi.  
(2025-yil «03» 01 dagi 60 raqamli reyestr bayonnomasi)



**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**B.D. Xajiyev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon savdosida keyingi yillarda rivojlangan davlatlarda talabning qisqarishi, Sharqiy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti ko'rsatkichlarining susayishi, tovar narxlarining tushishi ta'sirida tovarlar kesimida pasayish kuzatilmoqda. Xizmatlar savdosi bo'yicha esa 2023-yilning aksariyat qismida COVID-19 inqirozidan keyin kechiktirilgan iqtisodiy tiklanish bilan bog'liq o'sish kuzatilmoqda. Biroq, mazkur yilning ikkinchi yarmida xizmatlar sohasining tiklanishi sezilarli darajada sekinlashib, pasayish holatlari Janubiy-sharqdagi rivojlanayotgan mamlakatlarda ko'proq kuzatildi. Ushbu tendensiyalar nafaqat Sharqdagi pasayish bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki Osiyo mintaqalari o'rtasidagi savdoning pasayishi natijasi ham hisoblanadi. 2024-yilga nazar tashlaydigan bo'lsak, "global savdo prognozi juda noaniq va umuman pessimistik bo'lib qolmoqda. Muayyan iqtisodiy ko'rsatkichlar potensial yaxshilanishlarga ishora qilsada, doimiy geosiyosiy keskinliklar, yuqori darajadagi qarzarlar va keng tarqalgan iqtisodiy zaiflik global savdo tartibiga salbiy ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda"<sup>1</sup>. Bu esa jahondagi tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning statistik tadqiqining dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni statistik tadqiq qilishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tashqi savdo va iqtisodiy o'sishning o'zaro ta'sirini baholash, savdo-sotiqning turli segmentlari bo'yicha diversifikatsiya darajasini tahlil qilish, erkin savdo rejimiga o'tish natijasida iqtisodiy o'sishga erishilgan samaradorlikni baholash, savdo jarayonida texnologiyalar va innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishga hissasini tahlil qilish, savdo va o'sish o'rtasidagi korrelyatsiya va sababiy aloqalarni aniqlash uchun yangi modellar ishlab chiqish, tashqi savdoda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omillarni aniqlash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tashqi savdo imkoniyatlaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham "Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2030-yilda respublika eksport hajmini 45 mlrd. AQSh dollariga yetkazish, investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo'yicha, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish"<sup>2</sup> kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda respublika miqyosida va hududlar bo'yicha tashqi savdo jarayonlari samaradorligini majmuaviy statistik baholab, mamlakat tashqi savdosini iqtisodiy indekslar yordamida hisoblash, integral ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish, shahar va tumanlar kesimida davriy ko'rsatkichlar va ularga ta'sir qiluvchi omillarni maxsus statistik usullarda tahlil qilish, samaradorlikni baholovchi ekonometrik modellarni tuzish va kelgusi davrlar uchun qisqa muddatga statistik prognoz ssenariylarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan tadqiqot ishlari dolzarb hisoblanadi.

<sup>1</sup> <https://unctad.org/publication/global-trade-update-december-2023>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2022–2026-yillar uchun mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"gi 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmoni [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 6-apreldagi PF–97-son “Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 28-yanvardagi PF–5643-son “Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 3-avgustdagi PQ–4796-son “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 24-martdagi PQ–3624-son “Tashqi savdoni yanada erkinlashtirish va savdo operatsiyalarining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tashqi savdo faoliyati va uni statistik baholash yo‘nalishlari bo‘yicha dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari va soha mutaxassislari faoliyat olib borganlar. Jumladan, R.A. Blecker, H.Escaith, M. Amiti, Yu. Li, E.F. Hecksher, Y. Cheng, V. Jeníček, V. Krepl, M. Kahya, J.E. Anderson, A. Frankel, A. Jeffrey, D. Romer, E. Kantar, B. Deviren, M. Keskin, P.T. Cong, N.Q. Hiep, S.M. Hassan, L. Simanova, V. Kupcak, A. Sujova<sup>3</sup> tashqi savdo nazariyasi va iqtisodiy-statistik tahlili, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlash bo‘yicha turli ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari iqtisodchi olimlaridan A.N. Kislyakov, S. Bayasgalangiyn, E.R. Rizvanova, N.E. Zabrovskaya, Ye.V. Romanova, T.V. Voronina, A.B. Yassenko, Ye.A. Stepanov<sup>4</sup> ilmiy izlanishlarida

---

<sup>3</sup> R.A. Blecker. Long-Run Growth in Open Economies: Export-Led Cumulative Causation or a Balance-of-Payments Constraint? Handbook of Post-Keynesian Economics, edited by Geoff Harcourt and Peter Krielsler (Oxford University Press, 2011, forthcoming). M. Amiti. International trade in the manufacturing sectors of industrialised countries: Theory and evidence Ph.D. Dissertation in Economics. London School of Economics and Political Sciences. 2014. V. Jeníček, V. Krepl. The role of foreign trade and its effects. Agric. Econ. – Czech, 55, 2009 (5): 211–220. Yu. Li, Z. Chen, Ch. San. Research on the Relationship between Foreign Trade and the GDP Growth of East China—Empirical Analysis Based on Causality. Modern Economy, 2010, 1, 118-124. E.F. Hecksher, “The Effect of Foreign Trade on the Distribution of Income”, Economise Tidskrift, 1919, pp. 497-512. Y. Cheng, , Hongru Yi, Chenchen Wang, Ke Wang, Juntao Zhen//What network roles affect the decline of the embodied carbon emission reduction pressure in China’s manufacturing sector foreign trade?// Journal of Cleaner Production, 2024. M. Kahya. An analysis of the relationship between foreign trade and economic growth in Turkey over the period 1980-2009. Master programme in Economic Growth, Innovation and Spatial Dynamics. 2011. J.E. Anderson. International Trade Theory. Boston College. The Impact of International Trade on Sustainable Development in Saudi Arabia. Sustainability 12: 5421. A.Frankel, A.Jeffrey, and D. Romer.. Does Trade Cause Growth? American Economic Review 89: 379–99. 1999. E. Kantar, B. Deviren, [M. Keskin](https://www.sciencedirect.com/journal/physica-a-statistical-mechanics-and-its-applications)//Hierarchical structure of Turkey’s foreign trade// <https://www.sciencedirect.com/journal/physica-a-statistical-mechanics-and-its-applications>. P.Th. Cong, N.Q. Hiep. The Transmission Mechanism of Bilateral Relationship Between Exports and Economic Growth in Vietnam. International Journal of Economics and Financial Issues, 2017, 7(2), 536-543. Sadak Mohamud Hassan. Analyzing the nexus between foreign trade and economic growth in djibouti through the application of a var model (1989-2021). Doi: 10.17261/Pressacademia.2023.1740. A. Sujova, L. Simanova, Vaclav Kupcak, Jarmila Schmidtova and Adriana Lukacikova. 2021. Effects of Foreign Trade on the Economic Performance of Industries—Evidence from Wood Processing Industry of Czechia and Slovakia. Economies 2021, 9, 180. <https://doi.org/10.3390/economies9040180>

<sup>4</sup> А.Н.Кисляков. Методология прогностического моделирования внешнеэкономической



tashqi savdoni rivojlanishi, ilmiy-uslubiy jihatlari, baholash masalalari, iqtisodiy-statistik tahlili va prognozi masalalari tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda statistika va ekonometrika, jumladan, tashqi savdo va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi bog‘lanishlarni statistik baholash, ekonometrik modellashtirish va prognozlash bo‘yicha iqtisodchi olimlardan Yo. Abdullayev, N.M. Soatov, B.A. Begalov, T.Sh. Shodiyev, B. Berkinov, I. Habibullayev, B.K. G‘oyibnazarov, X.D. Xo‘jaqulov, A.H. Ayubjonov, B.K. Utanov, A.M. Jumayev, P.A. Allayarov, E. Yuldashev<sup>5</sup> va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Yuqoridagi olib borilgan tadqiqotlarda tashqi savdoni iqtisodiy o‘shiga ta‘sir etuvchi omillar, baholash mezonlari va tamoyillari hamda ko‘rsatkichlar tizimi xalqaro talablar va tasniflagichlardan foydalanib, yetarli darajada statistik jihatdan kompleks tahlil etilmaganligi sababli mazkur dolzarb mavzu tanlab olinib, uning doirasida maqsad va vazifalar belgilab olingan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdo va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi jarayonlarini iqtisodiy-statistik tahlil qilishning uslubiy jihatlari baholash va o‘rta muddatli prognozlarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

tashqi savdo va iqtisodiy o‘sh o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning statistik tadqiq qilishining nazariy-huquqiy hamda uslubiy asoslarini o‘rganish;

---

деятельности регионов. Автореферат М: – 2022. Баясгалангийн Цэцгээ. Диссертация на тему «Методическое обеспечение оценки состояния и формирования направлений развития внешнеэкономического комплекса региона», М: – 2022. Н.Е. Забровская, Е.В. Романова. Эконометрический анализ влияния международной торговли на экономический рост. Серия «экономика. Социология. Культурология». Э.Р. Ризванова. Статистический анализ товарной структуры внешнеторгового оборота (на примере Российской Федерации и стран Скандинавии). Санкт-Петербург– 2018. Т.В. Воронина, А.Б. Яценко. Оценка взаимосвязи внешней торговли и ввп стран мира в условиях нестойчивого роста мировой экономики. Ученые записки Крымского федерального университета имени В.И. Вернадского. Экономика и управление. 2021. Т. 7 (73). № 3. С. 3–13. Е.А. Степанов. Влияние внешней торговли на экономический рост национальной экономики. Вестник Челябинского государственного университета. 2013. № 32 (323). Экономика. Вып. 42. С. 34–42.

<sup>5</sup> Yo. Abdullaev. Statistika nazariyasi. Darslik – T.: O‘qituvchi, 2002. Soatov N. Statistika. Darslik. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2003. – 743 bet. Begalov B.A. Axborot-kommunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirish: T.: TDIU, 2001. 36 b. T.Sh. Shodiyev, B. Berkinov, B. Xodiyev. Ekonometrika. –T.: TDIU, 2007.-98 b. I.Habibullayev, B.Utanov. Ekonometrika asoslari: O‘quv qo‘llanma - T.:“Iqtisod-Moliya”, 2018. B.K. G‘oyibnazarov Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste‘mol usulida hisoblash tahlili. “Makroiqtisodiy barqaror o‘shni ta‘minlashda statistik usullar va axborotlar rolini kuchaytirish” mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislari to‘plami 2020-yil 22-may. 21-22 betlar. X.D. Xujakulov va boshqalar. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning samarali yo‘llarini statistik metodlar asosida ishlab chiqish. Monografiya. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. Ayubjonov A. Amaliy statistika. Darslik. – T.: Iqtisodiyot, 2023. 623 bet. B.K Utanov, A Jumayev. Econometric Study of the Impact of the Digital Economy on the Gross Product in Anti-monopoly Conditions. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. Springer Nature Switzerland. 2022/12/15. 628-635 P. Allayarov, Ihtisham Ul Haq. Agricultural exports, financial openness and ecological footprints: an empirical analysis for Pakistan. 2021. E.I. Yuldashev. “O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdoning rivojlanish jarayonlarining iqtisodiy-statistik tahlili”. I.f.f.d. olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi. 2022.

tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning statistik tadqiqining xorij tajribasini o'rganish asosida takomillashtirish;

tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning hozirgi holati va tendensiyalarini o'rganish va statistik tahlilini amalga oshirish;

tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ekonometrik modellashdirish;

tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni statistik baholashni takomillashtirish;

tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni ekonometrik modellashdirishni takomillashtirish;

tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning ko'p variantli prognozlarini amalga oshirish.

**Tadqiqotning obyekti** bo'lib O'zbekiston Respublikasi tashqi savdosi hamda iqtisodiy o'sishning o'zaro ta'sirini namoyon etuvchi iqtisodiy jarayonlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** tashqi savdo faoliyatini iqtisodiy o'sishga ta'sirini statistik baholashda vujudga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida statistik kuzatish, guruhlash, mutloq, nisbiy va o'rtacha miqdorlar, grafik, korrelyatsion-regression tahlil, indekslar, taqqoslash, matematik-statistika, jumladan, ELG, ARIMA kabi ekonometrika usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

yalpi hududiy mahsulot va hududlarning tashqi savdo hajmlari o'rtasidagi bog'liqlikning korrelyatsiya koeffitsiyentlari klassifikatsiyasini korrelyatsiya zichligining "sezilarli" (0,00-0,30), "kuchsiz" (0,30-0,50), "o'rta" (0,50-0,70), "kuchli" (0,70-0,90), "juda kuchli" (0,90-1,00) qiymatlari chegarasiga ko'ra guruhlash taklifi asoslangan;

tashqi savdo ochiqlik indeksi ko'rsatkichlari mezonlariga asosan hududlar guruhlarining qiymatini ifodalovchi kartogrammasini ishlab chiqish asosida eng yuqori (Toshkent shahri (0,72), Andijon (0,42), Toshkent (0,33) viloyatlari) hamda eng kam (Surxondaryo (0,05), Qashqadaryo (0,06) va Navoiy (0,09) viloyatlari) ko'rsatkichga ega hududlar o'rtasidagi tafovutni qisqartiruvchi tashqi savdoning yangi yo'nalishlarini kashf qilish imkoni asoslangan;

tashqi savdoni iqtisodiy o'sishga ta'sirini statistik baholovchi ko'rsatkichlar tizimi mamlakat tashqi savdo faoliyatini statistik baholashda qo'llaniladigan amaldagi indekslariga "Savdoning ochiqlik" indeksini  $I_{tso} = \frac{\frac{1}{2}(E_i + I_i)}{YaIM_i}$  formulasi yordamida hisoblash uslubini tatbiq etish asosida takomillashtirilgan;

iqtisodiyotdagi dinamik va tasodifiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda iqtisodiy agentlarning qaror qabul qilish jarayonini va ularning bir-biriga ta'sirini ko'rsatuvchi makroiqtisodiy modelga asosan O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatining 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tashqi savdoni iqtisodiy o'sishga ta'sirini statistik baholovchi ko'rsatkichlar tizimini ko'p omilli statistik tahlil usuli yordamida takomillashtirilgan;



O‘zbekiston tashqi savdo va iqtisodiy o‘shish orasidagi o‘zaro munosabat ELG (Export led growth) modeli bo‘yicha ekonometrik bog‘liqligi ishlab chiqilgan;

tashqi savdo ko‘rsatkichlarini prognozlash uchun DSGE modeli eng optimal prognozlash metodi ekanligi asoslangan;

respublika va hududlar miqyosida tashqi savdoni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar kompleks statistik baholangan;

tashqi savdo jarayonlarini baholovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi takomillashtirilgan;

eksport hajmi va unga ta‘sir qiluvchi omillar ekonometrik modellar yordamida baholangan va statistik prognozlari tuzilgan;

hududlarda tashqi savdo korxonalarini faoliyati samaradorligi va eksport salohiyatini oshirish yo‘nalishlari asoslab berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** foydalanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralarning iqtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalariga oid materiallari tadqiqotning empirik bazasi va ma‘lumotlari manbai sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan asosiy taklif va tavsiyalardan tashqi savdo va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning statistik tadqiqiga oid tadqiqotlarning ilmiy-uslubiy apparatini ishlab chiqish, mavzuga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishning uslubiy asoslarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar va amaliy tavsiyalardan mamlakatda tashqi savdo va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning milliy dasturlarini takomillashtirish, sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbekiston Respublikasida tashqi savdoning rivojlanish jarayonlarini iqtisodiy-statistik tahlili bo‘yicha olingan natijalar asosida:

yalpi hududiy mahsulot va hududlarning tashqi savdo hajmlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning korrelyatsiya koeffitsiyentlari klassifikatsiyasini korrelyatsiya zichligining “sezilarli” (0,00-0,30), “kuchsiz” (0,30-0,50), “o‘rta” (0,50-0,70), “kuchli” (0,70-0,90), “juda kuchli” (0,90-1,00) qiymatlari chegarasiga ko‘ra guruhlash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi №03-21-3-01383-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi mamlakatimiz hududiy rivojlanish dasturlari amalga oshirilishida xalqaro standartlarga mos keluvchi zamonaviy tahlil usullarini, ko‘rsatkichlarini, baholash mezonlarini qo‘llash bo‘yicha statistik uslubni takomillashtirish hamda hududlarning reyting tizimini takomillashtirish imkonini bergan;

tashqi savdoni iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini statistik baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi mamlakat tashqi savdo faoliyatini statistik baholashda qo‘llaniladigan

amaldagi indekslariga “Savdoning ochiqlik” indeksini  $I_{tso} = \frac{\frac{1}{2}(E_i + I_i)}{YaIM_i}$  formulasi

yordamida hisoblash uslubini tatbiq etish asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi №03-21-3-01383-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi mamlakat hamda hududlar bo‘yicha hisoblangan tashqi savdoning ochiqlik indeksi yordamida investorlarni hamda tashqi bozorni shaffof ma‘lumotlar bilan to‘ldirish darajasi ortishi orqali respublikamizni Jahon savdo tashkilotiga (JST)ga a‘zo bo‘lish imkoniyatlarini ortishiga xizmat qilgan;

tashqi savdo ochiqlik indeksi ko‘rsatkichlari mezonlariga asosan hududlar guruhlarining qiymatini ifodalovchi kartogrammasini ishlab chiqish asosida eng yuqori (Toshkent shahri (0,72), Andijon (0,42), Toshkent (0,33) viloyatlari) hamda eng kam (Surxondaryo (0,05), Qashqadaryo (0,06) va Navoiy (0,09) viloyatlari) ko‘rsatkichga ega hududlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartiruvchi tashqi savdoning yangi yo‘nalishlarini kashf qilish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi №03-21-3-01383-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashqi savdoning o‘zgarishi iqtisodiy o‘sishga ta‘siri qisqa va uzoq muddatda kointegratsion bog‘liqlik respublika sharoitida mavjudligi aniqlangan hamda hududlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartiruvchi tashqi savdoning yangi yo‘nalishlarini kashf qilish imkoni yaratilgan;

iqtisodiyotdagi dinamik va tasodifiy o‘zgarishlarni hisobga olgan holda iqtisodiy agentlarning qaror qabul qilish jarayonini va ularning bir-biriga ta‘sirini ko‘rsatuvchi makroiqtisodiy modelga asosan O‘zbekiston Respublikasi tashqi savdo faoliyatining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2024-yil 8-oktyabrdagi №03-21-3-01383-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida eksport, import va asosiy tashqi savdo ko‘rsatkichlarining optimistik, pessimistik va o‘rtacha qiymatlarining prognoz qiymatlari asosida tashqi savdo bo‘yicha dasturlar va strategiyalarni ishlab chiqishda tahliliy materiallarning aniqligi va tayyorlash imkoniyati oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari jami 7 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, milliy OAK e‘tirof etgan jurnallarda 3 ta, xalqaro 4 ta ilmiy maqola, shuningdek, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma‘ruza va tezislar nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning umumiy hajmi 128 betdan iborat.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Dissertatsiyaning kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi, zarurligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor

yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Tashqi savdo va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning statistik tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, tashqi savdoni statistik o‘rganishning nazariy asoslari, tashqi savdo faoliyatini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlar tizimi va tashqi savdoni statistik tadqiq etishdagi xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish yo‘llari yoritib o‘tilgan.

Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida tashqi savdo aylanmasi muhim o‘rin egallashi, mazkur ko‘rsatkichning iqtisodiy o‘shishga ta‘sirini statistik tadqiq etishni taqozo etadi. Qayd qilingan ikkita ko‘rsatkichning o‘zaro bir-biri bilan qanday bog‘langanligi to‘g‘risida xulosalar chiqarish bo‘yicha turli ilmiy tadqiqot ishlari mavjud. Iqtisodiy o‘shish mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishda qo‘shilgan qiymat hajmini muttasil ko‘paytirib borish jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatib, mamlakatning real yalpi ichki mahsulot (YaIM)ining oshishiga xizmat qiladi. Tashqi savdo aylanmasi muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdorini ifodalaydi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki olib chiqish (eksport) natijasida mamlakatda moddiy resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi<sup>6</sup>.

Tashqi savdo statistikasini shakllantirishda ma‘lumotlarni shakllantirish muhim hisoblanib, biz tadqiqot ishimizda bugungi kunda ma‘lumotlarni shakllantirish bilan tashkilotlar va idoralarning ro‘yxatini shakllantirdik (1-rasm).

---

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2019-yil 18-yanvardagi “Tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qo‘llanmasi” 1-son.



**1-rasm. Tashqi savdo statistikasiga oid ma'lumotlarni shakllantiruvchi va taqdim etuvchi mahalliy tashkilotlar va idoralar ro'yxati<sup>7</sup>**

Tashqi savdo dinamikasini statistik tahlil qilishda turli toifalar bo'yicha tahlilni olib borish statistik ma'lumotlarni iste'molchilari uchun juda katta qulayliklar yaratib berish bilan birga, tarmoqlar bo'yicha zaruriy axborotlarni operativ olish imkoniyatini ham oshiradi.

Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) qoshidagi Statistika boshqarmasi (UNCTAD) tomonidan taklif etilayotgan hamda amaliyotda keng qo'llanilayotgan statistika tizimida tashqi savdo hamda iqtisodiy o'sish, xususan mamlakat yalpi ichki mahsuloti o'rtasidagi bog'lanishlarni ifodalovchi bir qancha indekslar mavjud. Jumladan, savdo ochiqlik indeksi – Savdo ochiqlik indeksi tovar eksporti (E) va import (I) o'rtacha arifmetik ko'rsatkichining YaIMga (YaIM) nisbati sifatida hisoblanadi: bu yerda  $i$  iqtisodiyotni belgilaydi.


$$I_{tso} = \frac{\frac{1}{2}(E_i + I_i)}{YaIM_i} \quad (1)$$

Mazkur indeks mamlakat iqtisodiyotida muhim ko'rsatkich bo'lib, unda mamlakatning boshqa davlatlar bilan iqtisodiy munosabatlarini tartibga solib turadi. Natijada, iqtisodiy o'sishda tashqi savdoning umumiy holatini aks ettirish imkoniyati vujudga keladi. Mazkur indeks shuni ko'rsatadiki, indeks qanchalik baland bo'lsa, savdoning ichki faoliyatga ta'siri shunchalik katta bo'ladi va bu mamlakat iqtisodiyoti ichki imkoniyatlariga qaraganda kuchliroq bo'ladi. Jahon banki bergan ma'lumotlariga ko'ra 2023-yilda mamlakatimizda mazkur ko'rsatkich 27,1<sup>8</sup> foizni tashkil qilgan. Xalqaro darajada hisoblanar ekan, demak bu ko'rsatkich bizda ham hisoblanishi zarur. Umumiy o'rganish natijalardan shunday

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup> [Trade indicators – UNCTAD Handbook of Statistics 2023](#)


xulosaga kelindiki, agar mamlakatda tashqi savdo ochiqlik indeksi hisoblanib borilsa, mavjud ma'lumotlar bazasi yana boyir ekan. Open Data Inventory (ODIN) ochiq ma'lumotlar reytingida yanada imkoniyatlar yaxshilanishiga olib keladi.



**2-rasm. Tashqi savdo ochiqlik indeksining mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir mexanizmi<sup>9</sup>**

BMT qoshidagi statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan tashqi savdo ochiqlik indeksi ko'rsatkichlari mezonlariga asosan guruhlaridan kelib chiqib 14 ta hududni 3-rasmdagi kabi hisoblab kartogrammasini tuzdik.

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.



**3-rasm. 2023-yilda mamlakatimiz hududlarining tashqi savdo ochiqlik indeksi ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlar<sup>10</sup>**

Yuqorida aytib o'tilganidek, xalqaro manbalarda respublikamizning ochiqlik indeksi natijalaridan kelib chiqqan holda mamlakatimiz hududlarining ochiqlik indeksi ko'rsatkichlarini hisobladik. Hisoblangan tashqi savdoning ochiqlik indeksi eng yuqori ko'rsatkichlarga Toshkent shahri (72,41 %), Andijon (41,89 %) va Toshkent (32,55 %) viloyatlari to'g'ri kelgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkichga Surxondaryo (5,99 %), Qashqadaryo (6,06 %) va Navoiy (9,88 %) viloyatlari to'g'ri kelgan.

Tashqi savdo aylanmasini eksport-import tarkibi va ularning geografik yo'nalishlari bo'yicha statistik o'rganish mamlakat iqtisodiyoti uchun tashqi savdoning yangi yo'nalishlarini kashf qilish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarni statistik baholash”** deb nomlanib, unda tashqi savdo ko'rsatkichlarini tahlil qilish natijasida olingan ma'lumotlarni samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda tashqi savdoni iqtisodiy o'sish bilan statistik tahlili amalga oshirilgan.

Mamlakatimizning 2010–2023-yillardagi tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilga nisbatan ijobiy tendensiyaga ega bo'lgan (1-jadval).

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo aylanmasi mamlakatimizda 2023-yilga kelib 2010-yilga nisbatan 2,84 marta ortgan bo'lib, eksport 90,6 foizga, import 4,21 martaga ortgan.

### 1-jadval

#### 2010–2023-yillarda mamlakat tashqi savdo aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi, foizda<sup>11</sup>


<sup>10</sup> <https://siat.stat.uz/> ma'lumotlari asosida muallif hisoblamasi va ishlanmasi.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab



Ko'rsatkichlar	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2010-yilga nisbatan
<b>O'tgan yilga nisbatan, tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>104,7</b>	<b>90,5</b>	<b>97,2</b>	<b>109,6</b>	<b>125,8</b>	<b>124,9</b>	<b>86,8</b>	<b>116,3</b>	<b>119,8</b>	<b>125,8</b>	<b>285,9</b>
Eksport	110,6	92,3	96,7	103,8	111,4	124,8	86,5	110,3	118,4	126,0	190,6
Import	97,2	88,8	97,8	115,4	138,7	125,0	87,1	120,6	120,6	125,6	421,4
Eksportning importga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti	113,8	103,9	98,9	89,9	80,3	99,9	99,3	91,5	98,2	100,3	45,2
<b>shu jumladan: MDH davlatlari bilan</b>	<b>117,0</b>	<b>79,0</b>	<b>87,8</b>	<b>108,3</b>	<b>133,7</b>	<b>119,1</b>	<b>81,8</b>	<b>134,6</b>	<b>125,8</b>	<b>104,3</b>	<b>222,8</b>
Eksport	144,0	77,2	82,9	94,0	122,6	124,6	65,9	132,3	146,2	104,1	146,2
Import	91,0	81,2	93,8	123,6	142,7	115,2	93,8	135,8	115,3	104,4	339,0
Eksportning importga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti	158,2	95,1	88,4	76,1	85,9	108,2	70,2	97,4	126,8	99,7	43,1
<b>Boshqa davlatlar bilan</b>	<b>97,2</b>	<b>99,6</b>	<b>103,0</b>	<b>110,3</b>	<b>121,8</b>	<b>128,2</b>	<b>89,5</b>	<b>107,5</b>	<b>116,1</b>	<b>139,9</b>	<b>332,3</b>
Eksport	94,0	107,4	106,6	109,2	106,1	124,9	98,0	102,1	105,0	140,8	231,8
Import	102,0	93,5	99,9	111,4	136,5	130,6	83,6	111,8	124,4	139,4	473,0
Eksportning importga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti	92,2	114,9	106,7	98,1	77,7	95,6	117,1	91,3	84,4	101,0	<b>49,0</b>

Eksportning importga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti 45,2 foizga teng bo'lib, so'ngi yillarda import hajmining iqtisodiy o'sishga ta'sir doirasi kuchayotganligidan darak beradi. Mos ravishda mazkur ko'rsatkichlar MDH davlatlari bilan 2,23 martaga, 46,2 foizga hamda 3,25 martaga ortgan bo'lsa, boshqa davlatlar bilan esa 59,6 foizga va 3,39 martaga ortgan bo'lsa, import ko'rsatkichi aksincha 9,3 foizga kamaygan. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tashqi savdo aylanmasi MDH davlatlari hamda boshqa davlatlar bilan dastlabki yillarga qaraganda oraliq intervali kengayib bormoqda. Bu esa tashqi savdo geografiyasining kengayishidan dalolat bo'lib, tobora Jahon savdo tashkiloti (JST)ga a'zo bo'lish uchun muhim qadamlar tashlanayotganligi bilan izohlanadi.



**4-rasm. O'zbekistonda 2010–2023-yillarda yalpi ichki mahsulot va tashqi savdo aylanmasining o'zgarish sur'ati ko'rsatkichlari (oldingi yilga nisbatan, foizda)<sup>12</sup>**

Mamlakatimizda 2010–2023-yillarda YaIM hajmi o'tgan davrga nisbatan muntazam ravishda o'sib borgan bo'lsada, ayrim yillarda jadallashish sur'ati pasaygan (4-rasm). Grafikdagi ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda 2010-yilga nisbatan iqtisodiy o'sish 2,14 barobarga, tashqi savdo aylanmasi 2,86 martaga ortgan bo'lib, ayrim yillarda tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'atining pasayishi kuzatilgan. Umuman olganda 2010–2023-yillarda iqtisodiy o'sishga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 1,305 barobarga (2,79:2,138) ilgarilagan.

Tashqi savdoni iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini statistik tahlil qilishda, avvalo, statistik ma'lumotlarni to'plash, guruhlash va qayta ishlash jarayonlarini yanada takomillashtirish uchun tashqi savdo va iqtisodiy o'sish bo'yicha mavjud tasniflagichlar va standartlarni o'zaro muvofiqlashtirish, hisobot shakllarini yanada takomillashtirish va jahon standartlariga to'liq moslashtirish zarur bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, so'nggi vaqtlarda mamlakatning iqtisodiy o'sishiga tashqi savdoning, jumladan, eksport va importning ta'siri kuchayib borayotganligini hisobga olib, tadqiqotimizda respublika hamda hududiy mahsulotlari bilan respublika va hududiy tashqi savdo, eksport, import hajmlari bilan bog'lanish zichliklari hisoblandi. Hisob-kitob natijalariga ko'ra respublikamizning oxirgi 15 yillik yalpi ichki mahsuloti bilan tashqi savdo hajmlari o'rtasidagi bog'lanish Pirsonning korrelyatsiya koeffitsiyenti bo'yicha 0,35 ni tashkil qilgan. Mazkur ko'rsatkich Cheddokning shkalasi bo'yicha kuchsiz bog'lanishga ega deb talqin qilinadi. Biz tadqiqot davomida yuqoridagi davr uchun hududlarimizning yalpi hududiy mahsulotlari bilan hududlarning tashqi savdo ko'rsatkichlari bilan o'zaro bog'lanishlarini tahlil qilish uchun korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblab, klassifikatsiyasini tuzdik (2-jadval).

## 2-jadval

### Yalpi hududiy mahsulotlar va hududlarning tashqi savdo hajmlari

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

## o'rtasidagi bog'liqlikning korrelyatsiya koeffitsiyentlari klassifikatsiyasi<sup>13</sup>

Korrelyatsiya koeffitsiyent	Hududlar	Korrelyatsiya zichligi
0,00-0,30	Andijon (0,29), Buxoro (0,11), Qashqadaryo (0,27), Navoiy (0,23), Namangan (-0,07), Samarqand (-0,02), Sirdaryo (0,14), Farg'ona (-0,03), Xorazm (0,12),	Sezilarli
0,30-0,50	Jizzax (0,33), Toshkent vil. (0,42)	Kuchsiz
0,50-0,70	Qoraqalpog'iston Res. (0,51), Surxondaryo (-0,65),	O'rta
0,70-0,90	Toshkent sh. (0,72)	Kuchli
0,90-1,00	-	Juda kuchli

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aksariyat hududlarimizning iqtisodiyoti hamda tashqi savdo darajalari o'rtasidagi bog'lanishlar respublikamizning ko'rsatkichidan pastda joylashgan. Faqatgina 3 ta hudud Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,51), Surxondaryo (-0,65) hamda Toshkent shahri (0,72) respublika natijasidan yuqorida joylashgan. Qiziq ko'rsatkichlardan yana biri Namangan, Samarqand, Farg'ona hamda Surxondaryo viloyatlarida biz tahlil qilayotgan indikatorlarning teskari bog'lanishga ega bo'lganligi. Bunday ko'rsatkichdan bog'lanish modelini tuzsak, salbiy xulosa taqdim etish imkoniyati vujudga keladi. Fikrimizcha, bu kabi holatga to'g'ri baho berish uchun boshqa usullardan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqish zarur. Yuqoridagi holatda korrelyatsiya koeffitsiyenti to'g'ri chiziqli ma'lumotlar asosida hisoblanganligini unutmaslik kerak. Bizningcha, bu kabi holatlar to'g'ri chiziqda bo'lmagan holatda yanada to'g'riroq xulosa berishimiz uchun Spirmenning korrelyatsiya koeffitsiyentidan foydalanib tadqiq qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hududlarda yaratilayotgan mahsulotlar va hududlar tomonidan qilinayotgan eksport o'rtasidagi bog'lanish zichligi bo'yicha eng kuchli bog'lanishga ega hududlar Samarqand hamda Farg'ona viloyatiga to'g'ri kelayotgan bo'lsa, eng kuchsiz bog'lanishga ega hududlarga Surxondaryo va Navoiy viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Albatta bu yerda noto'g'ri xulosaga kelish mumkin bo'ladi, ya'ni bog'lanish zichligi past bo'lgan hududlarning eksport hajmi o'sha hududlarning yalpi mahsulotiga ta'siri sezilmaydi degan.

Mamlakat tashqi savdosida import hajmi ham muhim o'ringa ega bo'lib, yalpi hududiy mahsulotlar va hududlarning import hajmlari o'rtasidagi bog'liqlikning korrelyatsiya koeffitsiyentlari klassifikatsiyasiga nazar tashlasak, hududlarimizning iqtisodi va hududlarga kirayotgan import o'rtasidagi bog'lanish juda sust darajada. Faqatgina Surxondaryo viloyati (-0,57), Qoraqalpog'iston Respublikasi (0,66) hamda Toshkent shahri (0,56)ning ko'rsatkichlari o'rtada darajada bog'lanish kuchiga ega bo'lgan bo'lsa, qolgan hududlarimizning mazkur ko'rsatkichlarining bog'lanishlari juda sust darajada (0-0,3) oraliqda saqlanib qolgan. Demak, hududlarimizning iqtisodiyoti bilan hududlarga qilinayotgan import o'rtasidagi bog'lanish kuchi juda past ekan.

Tashqi savdoning o'zgarishi va yalpi ichki mahsulot o'rtasida kuchli to'g'ri chiziqli bog'lanish mavjud.

<sup>13</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

YaIMga nisbatan eksport, import va tashqi savdoning o'zgarishlari xalqaro tadqiqotlarda tashqi savdoning iqtisodiy o'sishga bo'g'liqligini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

### 3-jadval

#### 2010–2023-yillarda joriy narxlarda tashqi savdoning statistik ko'rsatkichlari<sup>14</sup>

#	Eksport kvotasi	Import kvotasi	Tashqi savdo ochiqlik indeksi	Sof eksport, mlrd. so'm	Xalqaro raqobatdoshlik koeffitsiyenti	Aholi jon boshiga tashqi savdo
2010	24,30	24,97	24,63	-534,84	-0,01	1388,90
2011	23,69	25,97	24,83	-2353,88	-0,05	1760,08
2012	19,28	24,96	22,12	-7237,23	-0,13	1909,81
2013	18,65	23,73	21,19	-7798,15	-0,12	2166,14
2014	16,05	20,31	18,18	-7970,32	-0,12	2227,60
2015	13,77	16,98	15,38	-7103,52	-0,10	2194,51
2016	12,33	16,86	14,60	-11560,82	-0,16	2361,45
2017	20,75	27,04	23,89	-19964,59	-0,13	4723,00
2018	26,84	44,36	35,60	-74762,23	-0,25	9302,60
2019	28,30	44,22	36,26	-84820,20	-0,22	11616,55
2020	24,18	37,66	30,92	-81638,90	-0,22	11043,90
2021	23,68	40,17	31,92	-121802,10	-0,26	13642,56
2022	27,02	43,90	35,46	-151375,90	-0,24	18027,83
2023	26,48	45,48	35,98	-202639,60	-0,26	21304,21

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida 2010–2023-yillar kesimida tashqi savdo ochiqlik indeksi joriy narxlar kesimida o'zgarib turgan. Mazkur yillar kesimida variatsion kenglik 15,38 dan 35,98 oralig'ida tebrangan. Mos ravishda ushu jarayon 2015- va 2023-yillarda sodir bo'lgan.

Tahlil natijasida, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida 2010–2023-yillar kesimida eksport kvotasida noabarqaror vaziyat mavjudligi aniqlandi. Xususan, 2010-yildan 2016-yilgacha kamayish holati 2017-yildan keyingi davrda o'sish tendensiyasi paydo bo'lgan. Mazkur davrda eksport kvotasining eng quyi nuqtasi 2016-yilda 12,33 ekanligi hisoblandi. Eng yuqori nuqta esa 2022-yilda 27,02 foiz ekanligi aniqlandi.

Import kvotasida ham 2010-yildan 2016-yilgacha kamayish tendensiyasi sodir bo'lib, 2016-yildan ko'tarilish borligi aniqlandi. 2010-yilda import kvotasi 24,97 foizga, 2023-yilda esa 35,98 foizlik qiymatga erishgan.

Iqtisodchilar aholi jon boshiga tashqi savdo ko'rsatkichi ham muhim omillardan hisoblanadi. Aholi jon boshiga tashqi savdo 2010-yilda 1388,90 ming so'mlik ekanligi hisoblandi. Yillar davomida aholi jon boshiga tashqi savdo ortib borgan. 2023-yilda aholi jon boshiga tashqi savdo 21304,21 ming so'mni tashkil qilgan.

Umuman olganda joriy narxlardagi tashqi savdo ko'rsatkichlarida umumiy noabarqarorlik holati bor. Lekin joriy narxlar tahlili tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi to'liq bog'liqlikni ifodalay olmaydi. Buning uchun tashqi savdo ko'rsatkichlarining doimiy narxlari tahlili zarur bo'lib qoladi.

So'nggi yillarda eksport va importning ilgarilash koeffitsiyentlari 1 dan katta

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ekanligi eksport ham import ham YaIMga nisbatan ko‘proq oshganligi bilan izohlanadi (4-jadval).

#### 4-jadval

### 2010–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida eksport va importning ilgariylash koeffitsiyentlari<sup>15</sup>

Yillar	Eksportni ilgariylash koeffitsiyenti	Importni ilgariylash koeffitsiyenti	Koordinatsiya nisbati
2010	0,95	0,94	1,01
2011	1,07	1,17	0,91
2012	0,89	1,01	0,88
2013	1,03	0,96	1,07
2014	0,87	0,88	0,98
2015	0,95	0,83	1,14
2016	0,98	0,93	1,06
2017	1,09	1,09	1,00
2018	1,04	1,35	0,77
2019	1,10	1,07	1,03
2020	0,78	0,83	0,94
2021	1,06	1,15	0,92
2022	1,18	1,07	1,10
2023	1,02	1,05	0,97

Tashqi savdoda joriy, doimiy va o‘zgarish darajalari bo‘yicha barcha mavjud koeffitsiyentlarni tahlil qilganimizda quyidagi xulosa va takliflarni aniqladik:

birinchidan, hisobotlarda tashqi savdodagi ko‘rsatkichlar milliy valyuta bilan birga xalqaro valyutalarda ham ifodalanishi tahlillarda taqqoslama kuzatuvlarni osonlashtiradi;

ikkinchidan, keyingi besh yil davomida tashqi savdoda faollik mavjud bo‘lishi tashqi savdodagi barcha ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘lgan;

uchinchidan, eksportni o‘sishi bo‘yicha respublika iqtisodiyoti dunyoda yuqori 20 talikka kirsam ham to‘lov balansida katta farq mavjud.

Tashqi savdo dinamikasi va geografiasidan tashqari tarkibiy o‘zgarishlari ham iqtisodiy o‘sishga ta‘sir etuvchi muhim jarayondir. Xususan, 2010–2023-yillarda eksport va import tarkibida boshqa toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar katta ulushga ega bo‘lgan.

#### 5-jadval

### 2010–2023-yillarda KQIT\* toifalari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi eksportining dinamikasi va tarkibiy o‘zgarishlari<sup>16</sup>

Code	Klassifikator	2010	2015	2020	2023	2010	2015	2020	2023
		Hajmi, mln AQSh dollari				Tarkibiy o‘zgarishi, %			
100.0	Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar	1224,29	1288,07	1374,42	1686,5	9,40	10,30	9,10	8,74
200.0	Boshqa toifalarga kiritilmagan ishlab chiqarish uchun birlamchi mahsulotlar	6669,3	5126	9899,2	10010,1	51,21	40,98	65,55	51,88

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>16</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

300.0	Yoqilg'i-moylash mahsulotlari	2962,9	2677,2	654,4	1202,6	22,75	21,40	4,33	6,23
400.0	Asosiy vositalar (transport vositalaridan tashqari) va ular uchun butlovchi qismlar va moslamalar	100,3	35,6	91,6	207,0	0,77	0,28	0,61	1,07
500.0	Transport vositalari va ularga ehtiyot qismlar	566,8	79	233,4	560,6	4,35	0,63	1,55	2,91
600.0	Boshqa toifaga kirmaydigan iste'mol tovarlari	164,4	240,6	835,6	1587,1	1,26	1,92	5,53	8,23
700.0	Boshqa toifaga kiritilmagan tovarlar	0	0	8,6	22	0,00	0,00	0,06	0,11
800.0	Xizmatlar	1335,5	3061,3	2005	4017,8	10,25	24,48	13,28	20,82

Tashqi savdo tarkibiy o'zgarishlarida tashqi savdo xizmatlari ortib bormoqda. Xalqaro iqtisodiyotda ham xizmatlar eksporti va importini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Ushbu tarmoqni o'sishi iqtisodiyotda bandlar sonining ortishiga, aholining tez va qulay daromad topishida o'z aksini topmoqda.

Dissertatsiyaning **“Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning statistik tadqiqini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida tashqi savdoning iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligini statistik va ekonometrik metodlar xususan ELG va DSGE metodlari asosida baholash bo'yicha takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ilmiy tadqiqotlarda Export led growth modeli keng qo'llanilgan bo'lib, buning mohiyati eksport bilan iqtisodiy o'sishni o'zaro kointegratsion bog'liqligi o'rganiladi. Mazkur modelni kengaytirilgan holda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va valyuta kursi ko'rsatkichlarni qo'shgan holda takomillashtirildi.

Tadqiqot bo'yicha ekonometrik modelni shakllantirishda quyidagi gipoteza ilgari surildi. Iqtisodiy o'sish, eksport va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zaro bog'langan. Ularning har birining o'zgarishi boshqa ko'rsatkichlarni o'sishiga ta'sir qiladi.

$$\begin{aligned}
 \ln GDP_t &= \beta_{01} + \sum_1^l \beta_{1i} \ln GDP_{t-1} + \sum_0^m \beta_{2i} \ln Export_{t-1} + \sum_1^l \beta_{3i} \ln FDI_{t-1} \\
 \ln Export_t &= \beta_{01} + \sum_1^l \beta_{1i} \ln GDP_{t-1} + \sum_0^m \beta_{2i} \ln Export_{t-1} + \sum_1^l \beta_{3i} \ln FDI_{t-1} \\
 \ln FDI_t &= \beta_{01} + \sum_1^l \beta_{1i} \ln GDP_{t-1} + \sum_0^m \beta_{2i} \ln Export_{t-1} + \sum_1^l \beta_{3i} \ln FDI_{t-1}
 \end{aligned}
 \tag{2}$$

Ko'rsatkichlarning nolinchii tartibli integrallashgan qatori statsionar bo'lishi eng kichik kvadratlar metodi bo'yicha regressiya modelidan foydalanish imkoniyatini beradi. Agar barcha birinchi tartibli qatorda statsionar deb qaror qilinsa ishonchlikka qarab regressiya yoki ARDL qo'llanilishi mumkin.

Har qanday holda vaqtli ma'lumotlar uchun statsionarlik tekshirilishi tadqiqotlarning dastlabki bosqichi hisoblanadi.



Birlik ildiz testi<sup>17</sup>

	O'zgaruvchilar	ADF	DF-GLS(ERS)	PP	KPSS
1	lnExport	-1,42	-1,51	-1,53	0,49
2	lnGDP	-2,85	-2,21	-2,7	0,33
3	lnIndustry	-4,9*	-4,4*	-5,1*	0,09*
4	lnEx_r	-1,7	-2,1	-1,5	0,23
5	lnFDI	-2,3	-2,3	-1,5	0,24

Statsionarlikka tekshirishning uch turi bo'lishiga qaramasdan, test bilan aniqlash muhim va ishonchli vositadir. Asosan to'rt turdagi testlar statsionarlikka tekshirish uchun qo'llaniladi. Dikkey Fuller, kengaytirilgan Dikkey Fuller, Philips Perron, Kwiatkowski, Phillips, Schmidt, Shin testlaridan foydalangan holda statsionarlikka tekshirildi.

